



O‘QUVCHILARNI DRAMA JANRIDAGI ASARLARNI TUSHUNISHGA TAYYORLASH STRATEGIYALARI

Abduqodirova Madina Rustamxo‘ja qizi,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
madina_abdukodirova@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207531>

***Annotatsiya.** Maqolada dramatik asarlarni o‘qitishga yordam beradigan strategiyalar, texnikalar haqida ma’lumot beriladi. Bunda jahon metodistlaridan biri Devid Fermer usullaridan foydalaniladi. Dramatik asarlarni o‘qitishda berilgan “Rasmlar bilan ishlash”, “Tez harakat”, “Forum teatr” kabi yangi strategiyalarni dars jarayonlarida qanday tashkil qilish, foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** dramatik asarlar, strategiyalar, texnikalar, guruh bilan ishlash, sahna asarlari, “Forum teatr”.*

Drama strategiyalari, boshqacha qilib aytganda drama janrini o‘qitish texnikalari maktab o‘qituvchilarining dramalarni o‘qitish jarayonidagi asosiy qurollari hisoblanadi. Shuningdek, ular o‘quvchilarning o‘quv qobiliyatlarini shakllantirishlariga, asarni tushunib o‘ziga xos xulosa chiqarishlariga, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishlariga ham yordam beradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish uchun ham drama janrining o‘rni beqiyosdir. Faqat bunda an’anaviy sodda usullardan emas, balki, yangi zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish yanada samarali yutuqlarga erishishga yordam beradi. Drama strategiyalarining yangi turlari “O‘qituvchilar uchun eng yaxshi resurslar” mukofoti sovrindori Devid Fermer tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular “101 drama o‘yinlari va mashg‘ulotlar” va “Ilk o‘quv yillarida drama orqali o‘rganish” kitoblarida keltirilgan.

Devid tomonidan kiritilgan metodlardan biri **“Rasmlar bilan ishlash”** strategiyasi bo‘lib, unda berilgan dramatik asarga oid san’at na’munalari, sur’atlar va fotosuratlardan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalaniladi. Ushbu jonsiz kadrlar o‘quvchilarning hayollarida 3D jonli rasmlarni yaratishlarida va fikrlab tushunishlarida katta yordam beradi. Sur’atlar bilan o‘quvchilar ma’lum mavzuni muhokama qilishlari va ularning bosh g‘oyasi haqida munozira yuritishlari mumkin. O‘qituvchi tomonidan rasmlar va fotosur’atlar o‘quvchilarga ko‘rsatilganda:

- Rasmdagi qahramon va asar qahramonlarni o‘rtasidagi bog‘liklarini yoki farqli jihatlarini aniqlash;

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



- Rasmdagi qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil etish;
- Dramaning rasmda tasvirlangan qismini asar bilan solishtirish va uni qay darajada o‘xshaganligiga diqqat qaratish;
- Rasm orqali asarning mazmunini yoki voqealar rivojini tahlil qilish;
- Rasmda tasvirlangan muhitni tahlil qilish kabi tomonlariga e‘tibor bergan holda mashg‘ulotlar tashkil qilinadi.

Shuningdek, drama janridagi mavzularni o‘qitishda rasmlardan quyidagicha foydalanish mumkin. Dastlab, o‘quvchilar bilan baxs mavzusi (masalan, xarakterlar va rasm o‘rtasida munosabat) va mavzuga oid rasmlar tanlanadi. O‘quvchilardan shartni bajarishlari uchun uch tomonlama turishlari, rasmdagi qahramonlarni yaxshilab kuzatib chiqishlari, o‘zlarini ulardan birining o‘rniga qo‘yishlari so‘raladi. So‘ngra ulardan, kim ekanliklari va tanlagan xarakterlarini jonlantirishlari so‘raladi. Bunda ketma-ket turgan qahramonlarning yonlariga borib yelkalariga sekin turtiladi va ulardan qahramon haqidagi taassurotlari haqida so‘raladi. Shu tarzda rasmdagi quruq kadrlar ya‘ni qahramonlar jonlanadi va bu esa qisqa muddatda rasmdagi jarayonlarni tilga kirishiga yordam beradi. Agar rasmda turli xil jarayonlar tasvirlangan bo‘lsa, unda o‘qituvchi har bir voqeani belgilab olgan holda o‘quvchilarga bo‘lib berishlari lozim. Ushbu jarayon amalga oshirilayotganda o‘qituvchi o‘quvchilarni oldiga keladi va ular ro‘lga kirib, o‘zlarining muhitdagi his tuyg‘u va fikrlarini bildiradilar va o‘qituvchi ketgandan keyin yana muzlaydilar (rasm ichidagi xarakterdek qotadilar). Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarda drama janridagi asarlarni qiziqib o‘qishlariga va ularda asar haqidagi fikrlarini ro‘llarga kirib, ya‘ni asar qahramoni bo‘lib his qilishlariga yordam beradi. Yana ham, darslarni mazmunli tashkil etishda, o‘quvchilarni iqtidorini shakllantirishga o‘ziga xos maydon vazifasini bajaradi.

Navbatdagi strategiyalardan biri “**Tez harakat**” deb nomlangan bo‘lib, yangi sinflarda drama janrining namunalarini o‘qishni boshlaganlar uchun ham, katta sinflarda qo‘llash uchun ham eng qulay bo‘lgan usullardan biri hisoblandi. Ushbu metod yordamida oddiy jarayonlarni yanada qiziqarli qilishda quyidagi amallarni bajarish kifoya qiladi:

Guruh bilan kelishgan holda “muz xoshiya” ya‘ni hamma qotgan holda joylashadigan joy aniqlanadi (aylana misolida) va asarning qaysidir qismi tanlab olinadi yoki drama uchun berilgan rasmlardan foydalaniladi.

Guruh bilan yaxshilab kelishib, qaysi qahramon qanday xarakterda ekanligi, uning nima haqida o‘ylayotgani va his qilayotgani aniqlab olinadi. Guruh kelishib

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



olgan qahramonlarning harakatlarini jonlantiradi ya'ni ijro etadi. Bunda ular “ro‘llarini” bir necha daqiqada, “harkatlan” buyrug‘idan so‘ng amalga oshiradilar. Sahna ko‘rinishini boshlash uchun bitta qarsak chalinadi. Qisqa muddat davomida improvizatsiya davom etadi, ya'ni ishtirokchilar “harkatlan” signalidan keyin harakatlanishga tushishadi va yana bir shunga o‘xshash “KES” va “Muzla” kabi signallardan so‘ng to‘xtatishadi. Improvizatsiya jarayoni bir necha sekundlarni, ko‘pi bilan bir minutni tashkil qiladi.

“Tez harakat” deb nomlangan strategiyada esa o‘quvchilar asarda berilgan voqealarni qisqa muddatda bajarishlari lozim bo‘ladi. Bundan tashqari qisqa ko‘rinishning ijro etilishi ularda asarning boshini qanday boshlab, oxirini qanday tugatish kerakligi haqida o‘ylantirmaydi. O‘qituvchilar uchun esa ushbu strategiya guruhni boshqarishda katta yordam beradi. O‘qituvchilar qisqa muddatli sahna ko‘rinishini bema'lol nazorat qila oladilar va xato kamchiliklari haqida, yaxshi tomonlari haqida tezda xulosa bera oladilar.

Darslarda “Kesish” deb nomlangan strategiyani amalga oshirish uchun bir drama asari asosidagi turi xil sahna asari yoki kinofilmlar kerak bo‘ladi. Dars mavzusiga ko‘ra tanlangan ikki xil video namoyish qilinadi va birinchisi qo‘yilganda ikkinchisi o‘chiriladi ya'ni “kesiladi”. Bir vaqt mobaynida ikki lavha ketma-ket qo‘yib ko‘rsatib boriladi. Bu jarayon orqali bitta drama asarining ikki videoda qay darajada tasvirlanganligi, voqealarning qanday berilganligi, asar va videoning o‘xshash va farqli jihatlarini, ma'lum bir davrning muhim jihatlari qay darajada yoritilganligi haqida munozara qilish mumkin. Ushbu strategiya o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga, asar elementlarini va qahramonlarini solishtirishlariga va tahliliy fikrlar bildirishlariga katta yordam beradi.

“To‘xta! Dramani hikoya orqali jonlantir” strategiyasi ham qiziqarli va interaktiv hikoya qilish texnikasi hisoblanib, oddiy va har qanday murakkab asarlarni, ular haqida to‘liq ma'lumotlarga ega bo‘lmaliklaridanoq bajara oladigan strategiya hisoblanadi [9]. O‘qituvchi ushbu mashg‘ulot davomida hikoya qiluvchi sifatida ishtirok etibgina qolmay, ijro rahbari sifatida ham faoliyat yurita oladi. Qatnashuvchilar esa asardagi qahramonlar, buyumlar, joylar, kema, saroy, quyosh kabilarni ijro etadilar. Mashg‘ulot o‘tkazilishi rejalashtirilayotganda o‘quvchilar aylana bo‘lib joylashishadi va ularga asardagi har qanday ishtirokchi, narsa-buyum, holat kabi xohlagan narsalarini tanlashlari mumkinligi aytiladi. O‘qituvchi hikoyani o‘qishni boshlayotganda, u aylana bo‘ylab harakatlanadi va doiraga ijrochi o‘quvchilarni chaqirib, o‘qilayotgan asar bo‘yicha harakatlarni bajarishlari so‘raladi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Ular uyni, odamlarni, turli xil narsalarni ijro etayotganlarida, o‘qituvchi “To‘xta” deyishi bilanoq joylariga qaytishlari buyuriladi. Aylanadagi har bir o‘quvchi hikoyani ijro etishga jalb qilinadi.

Darsda o‘quvchilarga bir xil vaqt davomida bir xil ro‘llarni ijro etishlari yoki boshqa ro‘llarda ham o‘zlarini sinab ko‘rish imkoniyati beriladi. Agar lozim bo‘lsa, butun guruh bir vaqtning o‘zida, masalan, o‘rmon yoki saroy kabi asardagi elementlarni bir butun bo‘lib ham, alohida ham ijro qilishlari mumkin. Faqat ulardan “To‘xta” so‘zi eshitilganda darrov joylariga qaytishlari so‘raladi. Jarayonda o‘quvchilar oddiygina harakatsiz tasvirni yaratishdan boshlaydilar, keyin esa asar davomida keltirilgan voqeani ijro eta boshlaydilar. O‘quvchilar bir-birlari bilan muloqatda bo‘lishlari, dialoglarni aytishlari va xattoki, ustoz aytgan gaplarni, xususan personaj nutqlarini takrorlashlari mumkin. Agar ijro jarayonida yangi fikrlar kelib qolsa, ularni qo‘shib o‘zgartirish kiritish ham mumkin. Chunki, asarni ijro etish jarayonida ishtirokchilarda mavjud qobiliyatlar yaxshi shakllanib, yangi g‘oyalar o‘ylab topishlari mumkin. Agar doira ichida faollik o‘ta chuqurlashganligini yoki vaziyatlar chalkashib ketganligini sezishi bilan o‘qituvchi “To‘xta” deydi va shu orqali yana hammasi o‘z holiga qayta boshlaydi. “To‘xta” so‘zi maxfiy qurol bo‘lib, undan keragicha foydalaniladi.

Ushbu o‘yin strategiyasi har qanday yoshdagi o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, faqatgina talab qilinadigan narsa mos hikoyani ya’ni dramalardan birini tanlay olish hisoblanadi. Bu texnika Varvik universiteti professori Dr Joe Winston tomonidan o‘ylab topilgan bo‘lib, Royal Shekspir kompaniyasi tomonidan doimiy ravishda foydalanib kelinadi. “To‘xta” strategiyasi nafaqat bolalarni asar bilan tanishishlariga imkon beradi balki, asarni tushunib ijro etishlariga, bu asar boshqalarda qay darajada fikr uyg‘otganligi bilan ham tanishishlariga imkon beradi. Ijro tugaganda esa asar haqidagi taassurotlarini ham bemalol bildira oladilar.

Yana bir strategiyalardan “Forum teatr” deb nomlanib, ushbu strategiya mashhur braziliyalik radikal Avgusto Boal tomonidan kashf etilgan uslub hisoblanadi. 1973-yili Peruda o‘tkazilgan tadqiqot Boalni yangi jarayonga olib kirdi. “Forum teatr” bir sahna asarida oshiq ayol va erkakning o‘zaro mehr-muhabbatini ijro etilayotgan payti sodir bo‘ladi. Sahna ko‘rinishi bir necha bor turli aktor va aktrisalar tomonidan ijro etiladi va yosh ayol ro‘li hayotiy qilib o‘ynashlari talab qilinadi. Bir qancha urinishlardan keyin, yana boshqa bir ayol chaqiriladi ushbu ro‘lni o‘ynab ko‘rishi aytiladi. Unga o‘zining xarakteri, fikr va mulohazalarini gapirishdan ko‘ra, ko‘rsatib berishi aytiladi. U sahnaga o‘zi va qahramon bo‘lib kirib keladi[10:65]. Forum



teatrda ham ijrochilar tomonidan asarni turli xil ijro qilib ko‘rishlari taklif qilinadi. 1970-yillardan buyon Boal yaratgan “Forum teatr” texnologiyasi darslarda keng qo‘llanib kelinadi[10:62].

Forum teatr metodini boshlashdan oldin, darslikda berilgan drama mos sahna ko‘rinishi yaratiladi. U ketma-ket qayta ijro etiladi va bir tomoshabin “To‘xta” deb aytadi va sahnaga qadam qo‘yib, personajlardan birining o‘rnini egallaydi va qayta ijro qiladi. Ushbu jarayonda ishtirokchilar o‘zlarining xarakterlarini va kundalik hayotda qo‘llaydigan harakatlarini ham qo‘shishlari mumkin. Sahnada Joker ya‘ni yordamchi ham kerak bo‘lib, u aktorlar va tomoshabinlar orasida muloqatni amalga oshirishda yordam beradi.

Ushbu strategiya o‘quvchilarni sahna asarlaridagi har bir element va qahramonlarni tahlil qilishlariga imkon beradi. Improvizatsiya malakasini oshirish bilan birgalikda o‘quvchilarda jamoa bo‘lib ishlash ma‘suliyatiga ham o‘rgatadi. Shuningdek, ishtirokchilar asar haqidagi, sahna qo‘yilayotgan parcha haqida ham o‘z fikrini aytishlari mumkin.

Maktabda berilgan adabiyot darsliklariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, “Sohibqiron” dramatik dostoni, Shekspirning “Otello” tragediyasi, Behbudiyning “Padarkush” dramasi kabi asarlar keltirilgan bo‘lib, an‘anaviy darslarda, asosan, ro‘llarga bo‘lib o‘qitish, yoki o‘qiganlarini qayta gapirib berish yoki savol javoblardan foydalaniladi. Agar darslarda yuqorida keltirilgan strategiyalardan foydalanib o‘qitish yo‘lga qo‘yilsa, o‘qish samaradorligini, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham yanada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qozoqboy Y., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. An‘anaviylikdan zamonaviylikka – T.: 2020.
3. Niyozmetova R. Uzluksiz ta‘lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2007.
4. To‘xliiev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani. – T.: Turon-Iqbol, 2018.
6. Types of English literature teaching approaches preferred by teacher in Secondary school in Miri, Sarawak. International Journal of Language Education and Applied Linguistics, 2016, Vol. 4, 1-14.
7. An investigation of literature teaching methodologies at a higher educational institution in Oman. TESOL journal, Vol 6(1), June 2012